

## SHE'RIYATNING SO'NMAS QUYOSHI

**Tursunova To'xtaxon Xayitovna**

*Namangan viloyati To'raqo'rg'on tuman, 2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining  
Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi.*

[tuxtaxontursunova@gmail.com](mailto:tuxtaxontursunova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola “She’riyatning So’nmas Quyoshi” deb nomlangan bo’lib, o’zbek adabiyotining buyuk namoyandasi Alisher Navoiyning hayoti, ijodi va pedagogik-tarbiyaviy qarashlari haqida fikr yuritadi. Maqolada Navoiyning boshlang’ich ta’lim jarayonidagi o’rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, shoirning “Xamsa” dostoni — “Hayrat-ul Abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai Sayyor” va “Saddi Iskandariy” asarlari qisqacha tavsiflanib, ulardagi odoq-axloq, insonparvarlik, mehnat, vatanparvarlik, ota-ona va ustoz hurmatiga oid g’oyalar yoritiladi. Maqolada Navoiy merosini yoshlarga singdirish — muallimning asosiy burchi ekanligi ta’kidlanadi. Boshlang’ich sinf o’quvchilariga Navoiy haqida bilim berish ularning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga mustahkam poydevor bo’lishi ilmiy-metodik jihatdan asoslanadi.

**Kalit so’zlar:** Alisher Navoiy, she’riyat, Xamsa, boshlang’ich ta’lim, odoq-axloq, tarbiya, insonparvarlik, ota-ona hurmat, ustoz, ma’naviyat, ona tili, ibrat, vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik, badiiy meros.

**Аннотация.** Данная статья, озаглавленная «Неувядающее солнце поэзии», посвящена жизни, творчеству и педагогическим и воспитательным взглядам Алишера Навои, великого представителя узбекской литературы. В статье анализируется роль и значение Навои в процессе начального образования. В частности, кратко описываются эпические поэмы поэта «Хамса» — «Хайрат-уль-Аброр», «Фарход и Ширин», «Лейли и Маджнун», «Сабай Сайёр» и «Садди Искандарий», а также освещаются содержащиеся в них идеи о морали, гуманизме, труде, патриотизме, уважении к родителям и учителям. В статье подчеркивается, что преемство наследия Навои молодежи является главной обязанностью учителя. Научно и методологически обосновано, что обучение учеников начальной школы творчеству Навои станет прочной основой для их духовного и нравственного развития.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, поэзия, хамса, начальное образование, этикет, воспитание, гуманизм, уважение к родителям, учитель, духовность, родной язык, пример, патриотизм, просвещение, художественное наследие.

**Annotation.** This article is entitled “The Unfading Sun of Poetry” and reflects on the life, work and pedagogical and educational views of Alisher Navoi, a great representative of Uzbek literature. The article analyzes the role and significance of Navoi in the process of primary education. In particular, the poet’s epic poem “Khamsa” — “Khairat-ul Abror”, “Farhod and Shirin”, “Leyli and Majnun”, “Sab’ai Sayyor” and “Saddi Iskandariy” are briefly described, and the ideas about morality, humanity, labor,

*patriotism, respect for parents and teachers contained in them are highlighted. The article emphasizes that instilling Navoi's legacy in young people is the main duty of the teacher. It is scientifically and methodologically justified that teaching primary school students about Navoi will be a solid foundation for their spiritual and moral development.*

**Keywords:** Alisher Navoi, poetry, Khamsa, primary education, etiquette, upbringing, humanity, respect for parents, teacher, spirituality, native language, example, patriotism, enlightenment, artistic heritage.

**Kirish.** Har bir xalqning shuhratini ellarga tanitib, ming-minglab yillarga olib o'tadigan buyuk farzandlari bo'ladiki, bunday insonlar oramizda bir umr, ularning nomlari dillarda abadul-abad saqlanadi. Bunday e'tirofqa sazovor bo'lgan alloma Mir Alisher Navoiy eng yuksak o'ringa munosibligi ham asrlar osha isbotini topgani haqiqat.

Ma'lumki, she'riyat mulkining sulтони Alisher Navoiy bobomiz o'zlaridan bitmas-tuganmas ma'naviy boylik qoldirganlar. Ana shu ma'naviy merosni yosh avlodga yetkazish va ular ongiga singdirish biz muallimlarning burchimizdir.

Odob ulug'lik va yuksaklik qasrining narvoni. Bu narvon orqali barcha maqsad manziliga yetish mumkin. Xalqimizda "Odob aqlli kishilar uchun ulug'lik va fazilatdir", degan purhikmat naql bor. Darhaqiqat, odob insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi hamda kishi qadrini baland qiluvchi sifat bo'lib, inson u tufayli odamlar orasida hurmat va e'tiborga erishadi. Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlarida odob-axloqqa oid fikrlar, ta'lim-tarbiya sohasidagi bizga ibrat bo'ladigan mulohazalarni uchratish mumkin.

Boshlang'ich ta'lim bosqichining "Ona tili va o'qish savodxonligi" va "Tarbiya" darsligida so'z mulkining sulтони, benazir va mutafakkir shoir Alisher Navoiy hazratlari haqida tushuncha berish, g'azallari, hikmatlari va asarlarida foydalanib o'tish maqsadga muvofiqdir. Shoirning xalqparvarlik, mehr-oqibat, ma'rifatparvarlik, mehnatsevarlik, odamilik, ota-ona, ustozlarga hurmat kabi g'oyalar ta'lim-tarbiyaga oid fikr, mulohaza va qarashlari o'quvchilarni yoshligidanoq bilishi va o'rganishida yuksak o'rin tutadi.

Albatta, bu mavzular asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlarda shoirning bolalik yillari hayoti va faoliyati haqida o'quvchilarga ibratli tarzda hikoya qilib beriladi. Bu o'rinda Navoiyning o'zbek tilini rivojlantirishdagi, unga sayqal berishdagi xizmatlarini bolalarga yetarlicha tushuntirish orqali, til millatning qalbi, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho xazina ekanligini, uning yozib qoldirgan asarlaridan namunalar, ibratli fikrlar aytish inson ma'naviyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Mir Alisher Navoiy bobomiz birinchilardan bo'lib turkiy tilda "Xamsa" (besh doston) asarini yozganlar. Bular: "Hayrat-ul Abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" kabi besh go'zal dostonidan iborat bo'lib, o'zining badiiy qiymati bilan ajralib turadi.

Bobokalonimiz barcha asarlarida insonlarni halollikka, mardlikka, yaxshilikka, har bir insonni odamlar tashvishini o'ylovchi inson bo'lishga chaqirganlar.

Shoir bobomiz, ayniqsa, ustozlarni ulug‘lab, "Harf o‘rgatgan ustozni hurmat qilib, uning haqidan qutulmoqchi bo‘lsang, xazinangdagi barcha oltinlarning bilan ham uzolmaysan", - deydilar.

**Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,  
Aylamak bo‘lmas ado oning haqqin yuz ganj ila.**

Hazrat Alisher Navoiy ijodida ota va onaga bo‘lgan yuksak hurmat va ehtirom qobil va fozil farzandlilik, barkamol va saodatlik bo‘lmoqqa poydevordir. Oilada ota maqomi shu qadar yuksak ta‘riflanganki, beqiyos darajada ota-onalarga, farzandlar ularni hurmat-ehtirom ila munosabatda bo‘lishi zarurligini o‘qtiradi. Navoiy o‘z asarlarida farzandlarni ota-onalarga, mehr-shafqat, izzat-ikrom ko‘rsatishga chaqirganlar.

Biz fikrimizni quyidagi satrlar ila chiroyli dalillagimiz keladi

**Boshni fido ayla ato qoshig‘a,  
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.  
Tun - kuningga aylagali nur posh,  
Birisin oy angla, birisin kuyosh.**

Buyuk bobomiz "Xamsa"ning birinchi dostoni "Hayrat-ul abror" asarida boshqa mavjudotlardan imkon va imtiyozda ustun bo‘lgan insonning bu olamdagi hayoti mazmuni nimalardan iborat bo‘lishi kerakligiga o‘quvchining e‘tibori qaratiladi. Muallifning bu boradagi falsafiy qarashlari, chuqur mulohazalari quyidagi baytda o‘zining yorqin ifodasini topgan.

**Odami ersang, demagil odami,  
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.**

Baytning mazmuni quyidagicha. Demak, inson boshqalarga manfaat yetkazish, xalq og‘irini yengil qilish maqsadi bilan yashasagina uziga berilgan umr mazmunini anglab yetgan hisoblanadi. Yo‘qsa, uning boshqa hayvonlar, hasharotlardan farqi bo‘lmaydi. Ikkinchi dostoni "Farhof va Shirin"da insonparvarlik, mehr-muhabbat, vafo-sadoqat, iroda qudtati tarannum etiladi. Uchinchi doston "Layli va Majnun"da inson qadr-qimmatini, yaxshilik go‘yalari ilgari suriladi. "Sab‘ai sayyor"da esa ilm-hunar, axloq-odob, vatanparvarlik, mardlik, rostgo‘ylik fazilatlar ulug‘lanib, yolg‘onchilik, dangasalik, qorqoqlik, xiyonatkorlik kabi illatlar qoralanadi. "Saddi Iskandariy" dostonida halollik, poklik, mehmondo‘stlik, rostgo‘ylik, xushmuomalalilik, shirin so‘zlik, muomalaning ya‘ni, so‘zning o‘z o‘rni me‘yori, darajasi haqida: "So‘z o‘z borlig‘i bilan olamning hamma burchagiga yetib boruvchi, o‘z sharafi bilan esa odamni eng yuksak martabalarga ko‘targuvchidir. Agar ma‘noli so‘z bo‘lmasa, ichida gavhari yo‘q sadaf singari, insonning hech qanday obro‘ va e‘tibori yo‘qdir" degan fikrlarni bayon qiladi.

Bobomiz ona tilini juda yaxshi bilganlar va ko‘plab asarlarini o‘zbek tilida yozganlar. Alisher Navoiy doimo har bir kishining so‘zi yumshoq, shirin so‘z bo‘lishiga ahamiyat bergan. Uning "Barcha balo tildandir" degan ogohlantirishlari, "Odam a'zolarining shirini ham, zahari ham til, undan chiqadigan so‘zdir" deb ta'kidlashlari har bir kishi tilni bema'ni, behayo, qo‘pol, tinglovchi diliga ozor beradigan so‘zlardan tiyish zarurligini ko‘rsatib, e‘tibor berib so‘zlashga chaqirganlar.

**"Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz", "Til shirinligi ko'ngilga yoqimlidir, Muloyimligi esa foydalidir", "Tiling birla ko'nglingni bir tut", "Oldiga kelganni yemak hayvonning ishi, og'ziga kelganni demak nodonning ishi"** deb ta'kidlaydilar.

Biz buyuk dahoning ulkan hayotiy saboqlaridan boshlang'ich sinf o'quvchilariga adabiy saboqlar berishimiz, ularda sog'lom avlod ruhiyatini shakllantirishi bilan birga oila haqidagi qarashlarini yanada teranlashtiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchisida Alisher Navoiy haqidagi bilimlar boshlang'ich qarashlarini shakllantirib, bir umirga hayot maslagi bo'lib shakllanishiga asos bo'lishi bilan tarbiyaviy-ma'naviy qimmatga ega deb hisoblaymiz.

Alisher Navoiyning tarbiya va odob to'g'risidagi ibratli fikrlari biz uchun hayotiy qo'llanmadir. Shoirning muomala odobi xususidagi qarashlarini o'rganish hozirgi davr uchun g'oyat ahamiyatli. Zero, ulug' ustozning ta'kidlaganidek, umr - o'tkinchi, inson shunday yashash kerakki, ushbu qisqa vaqt ichida qanoatga yo'g'rilgan go'zal odobi va xulqi tufayli izzat - hurmat topib, "Yaxshi inson" degan oliy sifat bilan avlodlar qalbida yashab qolsin.

O'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy jahon adabiyoti xazinasiga katta hissa qo'shgan bobokalonimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Zero, uning nomi o'lmas asarlari va ijodiy merosi ta'lim va tarbiya bobida asrlar osha ziyo tarataveradi.

Xullas,ul zotning ijodini daryoga o'xshatamiz. Bu asarlardan butun dunyo xalqlari bahramand bo'lmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Xamsa asari
- 2.Boshlang'ich ta'lim jurnallari
- 3.Tarbiya jurnali